



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



IC²I JOURNALS
MASTER LIST

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
NUMBER
FOR SERIALS
PUBLICATIONS

doi

zenodo

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBID

Google Scholar

open access.nl



INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI

**3-JILD, 2-SON
2026**

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:

Google Scholar  * digital object
identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



**Academic
Resource
Index**



DRJI **Directory of Research Journals Indexing**

Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

3-JILD, 2-SON | FEVRAL – 2026 |

+99833 5668868 | www.innoworld.net | @Anvarbek_PhD

Konstitutsiyaviy islohotlarning jamiyat farovonligiga ta'siri

H.F.Abduvositov – Farg‘ona davlat universiteti

Harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich kursanti

abduvositovhusniddin86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada konstitutsiyaviy islohotlarning jamiyat farovonligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida konstitutsiyaviy me'yorlarining yangilanishi inson huquqlari, ijtimoiy himoya, iqtisodiy erkinliklar va davlat boshqaruvi samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy yondashuvlar asosida o'rganildi. Maqolada Konstitutsiyaning “inson – jamiyat – davlat” tamoyili doirasida fuqarolik jamiyati rivoji, ijtimoiy adolatni ta'minlash, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirishdagi ahamiyati yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, konstitutsiyaviy islohotlar nafaqat huquqiy tizimni modernizatsiya qiladi, balki jamiyat farovonligining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini mustahkamlash orqali barqaror taraqqiyotning muhim huquqiy poydevoriga aylanadi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, konstitutsiyaviy islohotlar, farovonlik, huquqiy davlat, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, fuqarolik jamiyati, boshqaruv samaradorligi, iqtisodiy erkinliklar, huquqiy kafolatlar, demokratik tamoyillar, ijtimoiy himoya

Аннотация. В данной статье теоретически анализируется роль и значение конституционных реформ в обеспечении благосостояния общества. В ходе исследования на основе научных подходов изучено, как обновление конституционных норм влияет на права человека, социальную защиту, экономические свободы и эффективность государственного управления. В статье раскрыта важность Конституции в контексте принципа «человек – общество – государство» для развития гражданского общества, обеспечения социальной справедливости, усиления механизмов прозрачности и подотчётности. Анализ показал, что конституционные реформы не только модернизируют правовую систему, но и формируют важную правовую основу устойчивого развития, укрепляя социально-экономические факторы благосостояния общества.

Ключевые слова: Конституция, конституционные реформы, благосостояние, правовое государство, права человека, социальная справедливость, гражданское общество, эффективность управления, экономические свободы, правовые гарантии, демократические принципы, социальная защита

Abstract. This article theoretically analyzes the role and significance of constitutional reforms in ensuring the well-being of society. Based on scientific approaches, the study examines how the updating of constitutional norms affects human rights, social protection, economic freedoms, and the efficiency of state governance. The article highlights the importance of the Constitution within the framework of the principle “individual – society – state” for the development of

civil society, the promotion of social justice, and the strengthening of transparency and accountability mechanisms. The analysis demonstrates that constitutional reforms not only modernize the legal system but also establish a crucial legal foundation for sustainable development, reinforcing the socio-economic factors that contribute to societal well-being.

Keywords: Constitution, constitutional reforms, well-being, rule of law, human rights, social justice, civil society, governance efficiency, economic freedoms, legal guarantees, democratic principles, social protection

Kirish. Konstitutsiya har bir davlatning siyosiy-huquqiy tizimini belgilab beruvchi asosiy hujjat bo'lib, jamiyat taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat organlarining vakolat hamda mas'uliyatlarini aniq belgilaydi. Shu ma'noda, Konstitutsiya mamlakatda erkin, demokratik va farovon hayotning ishonchli huquqiy poydevori sifatida xizmat qiladi. Bugungi globallashtirish jarayonida inson huquqlarini ta'minlash, adolatli boshqaruv tizimini shakllantirish, shaffoflik va fuqarolik faolligini kuchaytirish borasidagi islohotlarning samaradorligi ham aynan Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga, unda mustahkamlangan demokratik tamoyillarning hayotga tadbqiq etilishiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli siyosiy-huquqiy islohotlar, inson qadri va manfaatlarini ustuvor deb biluvchi demokratik boshqaruv modeli Konstitutsiyaning zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirilishini dolzarb vazifa sifatida ilgari surmoqda [2]. 2023-yilda qabul qilingan yangilangan Konstitutsiya esa nafaqat huquqiy davlatni mustahkamlash, balki fuqarolarning munosib turmush kechirishi, farovon hayotini ta'minlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarda tub o'zgarishlar bosqichini boshlab berdi. Shu bois, Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi o'rni va uning inson erkinligi hamda farovonligi uchun garov sifatidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil etish bugungi kunda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Konstitutsiyaning demokratik jamiyat qurishdagi o'rni, erkin va farovon hayotni ta'minlovchi huquqiy kafolat sifatidagi funksiyalarini nazariy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlarning ijtimoiy hayotga ta'sirini ilmiy asosda yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda konstitutsiyaviylikning huquqiy tamoyillari, fuqarolik jamiyati bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlariga oid ilmiy qarashlar tizimli tahlil qilinadi. Amaliy ahamiyati esa yangilangan Konstitutsiyaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirini chuqur anglash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda konstitutsiyaviy islohotlarning amaliy mexanizmlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlil. Konstitutsiya jamiyatning siyosiy-huquqiy tuzilishi, davlat hokimiyati tashkil etilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro majburiyatlarni belgilovchi oliy huquqiy kuchga ega hujjat hisoblanadi. Huquqshunos olimlardan A.V.Daycey, K.Xesse, L.Dyui kabi tadqiqotchilarning fikricha, Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvi mexanizmining me'yoriy asosini belgilaydi, balki insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar majmuasining kafolatlovchi negizidir [3]. Shuning uchun ham demokratik jamiyatda Konstitutsiya erkinlik, tenglik va adolat kabi umuminsoniy tamoyillarni huquqiy shaklda mustahkamlab, farovon hayotning bosh manbai sifatida qoraladi.

Inson erkinligi zamonaviy huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, u Konstitutsiyada belgilangan fundamental huquqlar bilan ta'minlanadi. Taniqli huquqshunos F.Hayek ta'kidlaganidek, erkinlik jamiyatda shaxsning mustaqil harakat qilish imkoniyatlari, davlatning esa uning hayotiga asossiz aralashmasligini anglatadi [4]. Shu ma'noda, Konstitutsiyada inson sha'ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida mustahkamlanishi davlatning demokratik mazmunini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida “Inson – jamiyat – davlat” tamoyilining ustuvorligi insonning erkin va munosib hayot kechirishi uchun zarur konstitutsiyaviy asoslarni yanada mustahkamladi. Inson huquqlarining daxlsizligi, so'z va e'tiqod erkinligi, shaxsiy hayotning himoyasi, mulk daxlsizligi kabi kafolatlar demokratik jamiyat egalari bo'lgan fuqarolarning erkin faoliyat yuritishiga xizmat qiladi [1].

Farovonlik tushunchasi iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarning uyg'un birligida shakllanadi. A.Sen va J.Roulz kabi nazariyotchilar farovonlikni “insonning hayotiy imkoniyatlari kengayishi, ijtimoiy tenglik, adolat va iqtisodiy erkinlikka ega bo'lishi” bilan izohlaydi [3]. Bu imkoniyatlarning huquqiy asosi esa, tabiiy ravishda, Konstitutsiyada mustahkamlanadi. Konstitutsiya fuqarolarga ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat qilish va munosib turmush sharoitiga ega bo'lish kabi huquqlarni taqdim etish orqali davlatning farovonlik siyosatini belgilaydi. O'zbekistonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ijtimoiy davlat sifatidagi qoidalari — aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy islohotlarning xalq farovonligiga xizmat qilishi kabi ustuvor yo'nalishlarni kafolatlaydi.

Konstitutsiyaviy davlat bu hokimiyatlar bo'linishi, qonun ustuvorligi va fuqarolarning siyosiy faolligi tamoyillariga asoslangan davlat tizimidir. K.Xessening ta'kidlashicha, Konstitutsiya davlatni cheklovchi va uning faoliyatini me'yorlashtiruvchi huquqiy mexanizm sifatida fuqarolarning erkinligini ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyati esa o'z-o'zini boshqarish tamoyillariga asoslanib, davlat va jamiyat o'rtasida muvozanatni yaratadi [4].

Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra, Konstitutsiyaning samaradorligi jamiyatning huquqiy madaniyati, fuqarolik faolligi va demokratik institutlarning mustahkamligi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun Konstitutsiya nafaqat davlat hokimiyati

chegaralarini belgilaydi, balki fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarda ishtirokini rag‘batlantiruvchi huquqiy muhitni yaratadi.

Ijtimoiy barqarorlikning asosiy sharti qonun ustuvorligi va davlat boshqaruvidagi ishonchning yuqori darajada bo‘lishidir. Huquqiy davlatda Konstitutsiya barcha qonunlar va siyosiy qarorlarning asosiy mezon bo‘lib, davlat siyosatining izchilligini ta‘minlaydi. Nazariy jihatdan, konstitutsiyaviylikning mustahkamligi jamiyatdagi iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshiradi, investorlarning ishonchini mustahkamlaydi, ijtimoiy barqarorlikning kafolatini yaratadi.

Zamonaviy demokratik nazariyada inson qadr-qimmatining ustuvorligi Konstitutsiya mazmunining markazida turadi. Bu g‘oya Germaniya Asosiy qonunida, Fransiya Konstitutsiyasida, BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham asosiy tamoyil sifatida qayd etilgan. O‘zbekistonning Konstitutsiyasida ham “Inson – eng oliy qadriyat” tamoyili davlat siyosatining bosh yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, bu nafaqat huquqiy me‘yor, balki jamiyat taraqqiyotining mafkuraviy asosini belgilaydi [13].

Xulosa. Nazariy tahlil asosida olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Birinchidan, konstitutsiyaviy islohotlar demokratik tamoyillarni mustahkamlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, konstitutsiyani yangilash jarayonlarida inson huquqlarining ustuvorligi, hokimiyatlar bo‘linishi va qonun ustuvorligi tamoyillarining kuchaytirilishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi va jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, inson qadr-qimmatini huquqiy himoyalash darajasi ortadi. Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar shaxs erkinliklari, ijtimoiy himoya, mulk huquqi, ta‘lim va sog‘liqni saqlash kabi fundamental sohalarida huquqiy kafolatlarni kengaytirib, fuqarolarning hayot sifatiga bevosita ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, farovonlikni ta‘minlovchi ijtimoiy-huquqiy mexanizmlar kuchayadi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, konstitutsion normalarning yangilanishi ijtimoiy davlat tamoyilining amalda ta‘minlanishiga xizmat qilib, aholining ijtimoiy himoyasi, bandligi va iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishiga huquqiy asos yaratadi.

Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlariga oid normalarning takomillashtirilishi nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, mahallalar va tashabbuskor guruhlarining jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy yangilanishlar davlat va jamiyat o‘rtasida muloqotni kuchaytiradi, hisobdorlik, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini rivojlantirib, davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Konstitutsiyaviy islohotlar jamiyatning uzoq muddatli strategik rivojlanishida muhim rol o‘ynashini, farovonlikning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy omillari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlashini ko‘rsatdi. Konstitutsiyaviy islohotlar zamonaviy davlatning siyosiy-huquqiy tizimini yangilash, inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish, ijtimoiy adolatni ta‘minlash hamda fuqarolarning

farovon hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan kompleks jarayon hisoblanadi. Nazariy tahlillar Konstitutsiya davlatning asosiy tamoyillarini belgilash bilangina cheklanmay, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini boshqaruvchi strategik mexanizm sifatida ham namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

O'tgan yillarda dunyo tajribasida konstitutsiyaviy yangilanishlarning muvaffaqiyati, avvalo, inson qadr-qimmati, erkinlik va adolat tamoyillariga asoslanishi bilan belgilanadi. Inson manfaatlarini ustuvor qo'ygan konstitutsiyaviy model ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, fuqarolarning huquqiy faolligini oshiradi va iqtisodiy farovonlikning huquqiy asoslarini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, konstitutsiyaviy islohotlar davlat boshqaruvini demokratlashtirish, hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini kuchaytirish, inson huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanadi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning samarasi ularning mazmun-mohiyatiga, fuqarolarning huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligiga, demokratik institutlarning barqaror ishlashiga bevosita bog'liqdir. Shuningdek, yangilangan konstitutsiyaviy me'yorlarning ijtimoiy hayotga tatbiqi iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi sohalarda yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy islohotlar farovon jamiyat qurishning muhim huquqiy asosini tashkil etadi. Ular inson huquqlari ustuvorligini ta'minlash, adolatli boshqaruv tizimini shakllantirish va fuqarolarning munosib hayotini kafolatlash orqali mamlakatning siyosiy-ijtimoiy barqarorligi hamda iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, konstitutsiyaviy yangilanishlar faqat huquqiy hodisa emas, balki jamiyatning uzoq muddatli farovonlik strategiyasi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Alimov M. Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi tamoyillari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
4. Xudoyberdiyev A. Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Yuldashev, F., & Yuldasheva, M. (2021). Prospects of the educational system in Uzbekistan. Рецензенты сборника, 308.